

OLY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Tuxsonov Feruzjon Qaxramonovich,

Xayrullayev Ulug'bek Xamdullayevich

Samarqand davlat pedagogika instituti assistentlari

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimiga kiritilishi zarur bo'lgan va uning echimi, bugungi zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning kiritilishi va ularni zamonaviylashgan dunyoga tatbiq etish borasida olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, innovatsion, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlari, innovatsion o'qitish, innovatsion ta'lim, yangilikning turlari, innovatsion didaktika, innovatsiyani to'plash, tanlash, qo'llash, innovatsion faoliyat, innovatsiyaning algoritmi, innovatsiyani boshqarish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Тухсонов Ферузжон Кахрамонович,

Хайруллаев Улугбек Хамидуллаевич

ассистенты Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье говорится о внедрении инновационных технологий в современную систему образования и реформах, которые реализуются в современном мире.

Ключевые слова: технология, инновация, концепция, ресурсы, организационно-методические, психолого-педагогические коллективы,

параметры, инновационное обучение, инновационное образование, виды инноваций, инновационная дидактика, сбор инноваций, отбор, применение, инновационная деятельность, инновационный алгоритм, инновацион-ный менеджмент.

THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION AND OPPORTUNITIES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

*Tukhsonov Feruzjon Kakhramonovich,
Khayrullayev Ulugbek Khamdullayevich
Assistants of Samarkand State Pedagogical Institute*

Abstract. *This article talks about the introduction of innovative technologies into the modern education system and the reforms that are being implemented in the modern world.*

Keywords: *technology, innovative, concept, resources, organizational, methodical, psychological, pedagogical teams, parameters, innovative teaching, innovative education, types of innovation, innovative didactic, innovation collection, selection, application, innovative activity, innovation algorithm, innovation management.*

Kirish. Respublikamizda ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, maktab ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va Maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

08.10.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi maktab ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonida keltirilib o‘tilgan. Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Innovatsion faoliyat sohasiga, ta’lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning echimini izlashga o‘z vaqtida F.I.Peregudov munosib hissa qo‘shdi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish “O‘qituvchining innovatsion faoliyati” tushunchasi paydo bo‘ldi.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar:

- “Pedagogik tajriba sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi”. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati maktablarining tez rivojlanishi, modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo‘lgan katta ehtiyoj tug‘ildi. Yangiliklarni izlash, yaratish, qo‘llash ishlari jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan talab, “yangilik”, “innovatsiya” va “innovatsion jarayonlar” paydo bo‘ldi va u tushunchalarni izohlash, anglash zaruriyatini keltirib chiqardi. Innovatsion jarayonlarning mikrostrukturasini o‘rganib olimlar yangilik kiritishning “hayotiy qismi (davri)” konsepsiyasini ishlab chiqdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o‘tib boradigan jarayon degan fikrni ilgari surdilar. Yangilikni kiritishni yangilik yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirilishi bo‘lib, uning samaradorligi muntazam va hayotiy yangilikni ta’minlovchi uslub va tizimlarni ma’lum sifatli o‘zgarishiga olib keladi. Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga eskirib qolgan hamda vaziyat va ahamiyatlarini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bir darajali qator yangiliklar yig‘indisi (umumiyligi) innovatsion yaxlitlikni tashkil etadi. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma’noda

ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Muammoni tahlil asosida aniqlash;

Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash;

O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;

O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion didaktikaning predmetini yangilikni o'rgatish, o'rganish, yangilash, uni mazmunini boyitish tashkil etadi. Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug'iladi: nimani (qanday yangi mazmundagi) o'quv materialni yangicha o'rgatmoqchisiz. O'rgatish ham, o'rganish ham asosiy maqsadga yo'naltirilgan ta'lim obyekti va pirovard natija – mahsul bo'lmish ta'lim mazmunini yangicha talqin qilishga bog'liq. Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga xos yangicha usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchining yangicha yondashuviga bog'liq. Shunday qilib, didaktik tafakkur – bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim aloqalarining doimiy aloqalari, yangicha munosabatlarni izlash, aniqlash demakdir. Yuqoridagi ishlarni tashkil etish va joriy etish uchun ma'lum izlanishlar, tadqiqotlar va tashabbuslar bo'lmog'i lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalam bor ana shu dolzarb vazifalarni ijobiy hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalar g'oyasini ilgari surish, konsepsiyasini yaratish, yangiliklarni izlab topish, o'rganish, tahlillar qilish asosida eng ko'p sifat va samara beradiganlarni tanlab olish va ularni ta'lim amaliyotiga qo'llash tartibini belgilab beradigan yaxlit tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Globallashtirish jarayonlari, texnologik taraqqiyot va mehnat bozorida o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalaridan zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni talab etmoqda. Ta'lim sifati faqatgina bilimlarning o'zlashtirilishi bilan emas, balki talabalar fikrlash qobiliyati, amaliy ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan ham belgilanadi. Oliy ta'lim samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida

tashkil etish, o'qitish metodlarini yangilash, o'qituvchilarning kasbiy malakasini doimiy ravishda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqiladi va Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilishga bag'ishlangan.

Bugungi davr talabi ta'lim va tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda ilg'or tajribalarini joriy etish natijasida ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi-pedagoglar o'z bilimlarini doimo oshirib borishlari, innovatsion va interfaol usul hamda pedagogik texnologiya metodlarini puxta o'zlashtirib olgan holda ulardan o'z kasbiy faoliyatida samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar hamda amaliy tajribalar asosida rivojlanadi. Ushbu bo'limda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy omillar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, hamda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi.

1. Ta'lim sifati tushunchasi va uning nazariy asoslari. Ta'lim sifati – bu ta'lim jarayonining natijaviyligi, uning talabalar bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish darajasi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichdir. Oliy ta'lim sifati quyidagi omillar asosida baholanadi:

O'quv dasturlarining mazmuni – zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlar va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi. O'qituvchilarning kasbiy malakasi – ilmiy darajalar, tajriba va metodik tayyorgarlik. Ta'lim jarayonini tashkil etish – interaktiv uslublar, amaliy mashg'ulotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Talabalar bilimini baholash tizimi – aniq, adolatli va natijaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlari.

2. Oliy ta'lim samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar. Ta'lim samaradorligi bu – belgilangan maqsadlarga erishish darajasi va resurslardan oqilona foydalanish ko'rsatkichidir. Samaradorlikni oshirish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi: Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish: problemali o'qitish,

loyiha asosida ta'lim, tadqiqotga asoslangan yondashuvlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar. Tizimli monitoring va baholash: o'quv jarayonining samaradorligini doimiy nazorat qilish, tahlil qilish va takomillashtirish. O'qituvchilar va talabalarning o'zaro hamkorligi: faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish metodlari orqali talabalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish.

3. Xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar va tizimli islohotlarning samaradorligini ko'rsatmoqda. Jumladan: Finlyandiya modeli: o'qituvchilarning yuqori malakasi, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va mustaqil o'rganishga e'tibor. Singapur tajribasi: natijaga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va ilg'or baholash tizimi. AQSh va Yevropa amaliyoti: kredit-modul tizimi, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish.

4. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar. Oliy ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: O'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish; O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha doimiy treninglar va kurslarni tashkil etish. Innovatsion va axborot texnologiyalarini keng joriy etish; Ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil o'rganishga va tadqiqot faoliyatiga jalb etish; Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning ilg'or tizimlarini qo'llash. Ushbu omillar va tavsiyalar Oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sifatini baholash va uning monitoringini olib borish, shuningdek, indikatorlarni doimiy ravishda takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Asosiy vazifa ta'lim sifatining zaruriy darajasini ta'minlash, ta'lim sifati menejmenti va kvalimetriyasining samarali metodlarini ishlab chiqishga nisbatan metodologik yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan Oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab yangi Oliy ta'lim

muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlardan biridir. Intellektual salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim-tarbiya sifatining holati, uning monitoringi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda xolis baholansa, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etgan omillar o'z vaqtida korreksiyalanib, istiqbolga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ta'lim sifatining kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligi ta'minlanadi. Umumiy baholash ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy metodlari va ichki menejment samaradorligi tahlili asosida shakllantiriladi. Ta'lim mazmunini doimiy ravishda isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar shuningdek, ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon talablari darajasiga muvofiqligini ta'minlash jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, nazariy yondashuvlar va xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish uchun samarali baholash tizimlari, talabalarni

mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatiga jalb etish, hamkorlik va xalqaro tajribalarni o'rganish zarur. Oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar va ilg'or amaliyotlarni tatbiq etish natijasida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi. Xulosa qilib aytganda, Oliy ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish doimiy rivojlanish, zamonaviy talablarga moslashuvchanlik va ilg'or tajribalarni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim jarayonini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Ta'lim tizimidagi islohotlar yoshlarni hayotga moslashtirish, ta'limga oid dasturlarni mustaqil tanlash hamda amalda qo'llash uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarni yaratishni, oila, jamiyat, davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglovchi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini boshqarish va uning sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash juda muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar 233 ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida

o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli bu darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g'aoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi.

References:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.<https://lex.uz/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022– 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)
5. 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ–289-Qarori (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son)
6. Salimova B.G "Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ustozlarning roli" Samarkand branch of Volume 3 | SB TSAU Conference | 2022 Tashkent State Agrarian University Theoretical and Practical Principles of Innovative Google Scholar indexed Development of the Agricultural Sector in Uzbekistan.B.832.
7. Kurbanov D.M "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyati samaradorligini monitoring qilish tizimini loyihalashning tashkiliy-pedagogik asoslari", Международный научный журнал № 15 (100), часть1 «Научный Фокус» Июля, 2024. B.229.
8. Javliyeva Sh.B "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari", Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 12) B.54.
9. Tursunboyeva Y.R "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalari", Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021.B.256.